

## O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga (2006-2019) kiritilgan burchoqdoshlar oilasining solishtirma tahlili

M.A.Abduxalilova  
P.A.To'rayeva  
M.X.Ahmadaliyeva  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 2006-2019-yil nashrining 1-tomiga kiritilgan Burchoqdoshlar oilasining sistematik o'rni, tarqalish joylari va hayotiy shakli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizil Kitob, kamyoblik darajasi, flora, muhofaza, tarqalishi.

## Comparative analysis of the Burchagdas family included in the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan (2006-2019)

M.A.Abdukhalilova  
P.A.Torayeva  
M.Kh.Ahmadaliyeva  
Andijan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article contains information about the systematic position, distribution areas and life forms of the Burchakdash family included in volume 1 of the 2006-2019 edition of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** Red Book, status, flora, environment, prevalence.

Atrof-muhitni, o'simliklar va hayvonlarni himoya qilish insoniyat uchun juda katta ahamiyatga ega. O'simliklardan insonlar ko'p asrlardan buyon foydalanib kelmoqda, yovvoyi turlardan o'simliklarni madaniylashtirmoqda. Shuningdek tabiatga, o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat korxonalarining ko'payishi, tabiiy maydonlarni o'zlashtirilishi natijasida ekologik muvozanat buzilmoqda. Bu esa o'simliklarning kamayib ketishiga olib kelmoqda. O'zbekiston hududida 4500 yovvoyi o'simlik bo'lib shulardan 300dan ortiq tur muhofazaga muhtoj, kamyob hisoblanadi. O'simliklarni himoya qilish va yo'qolib ketishining oldini olish uchun "Qo'riqxonalar" va "Qizil Kitob"lar tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" ilk bor 1979-yil ta'sis etilgan., "Qizil Kitob"ning 2006-yil nashriga 325tur, 2019-yil nashriga 314 tur o'simlik kiritilgan.

“Qizil Kitob”ga kiritilgan o’simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan 4 ta maqom bo’yicha kamyoblik darajasiga tasnif berilgan.

1. *Kamyoblik darajasi* Yo’qolgan yoki yo’qolganligi ehtimoldan yiroq emas bo’lgan turlar. Yillar davomida tabiatda uchratilmagan, ammo madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoligi bor turlar.

2. *Kamyoblik darajasi* Yo’qolib ketish arafasida turgan turlar. Soni jihatdan va egallab turgan areali bo’yicha yo’qolib borayotgan turlar.

3. *Kamyoblik darajasi* Kamyob turlar. Ma’lum bir kichik maydonlarda uchrab, o’ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, yo’qolib ketishi mumkin bo’lgan, qolaversa, jiddiy muhofazani talab etuvchi turlar.

4. *Kamyoblik darajasi* Son jihatdan kamayib borayotgan turlar. Muayyan vaqt davomida tarqalgan maydoni va soni, tabiiy sabablarga kora yoki antropogen omil ta’sirida qisqarib borayotgan turlar hisoblanadi.

Mazkur izlanishimiz davomida O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ning 2006-2019-yilgi nashrlaridagi Burchoqdoshlar(Fabaceae) oilasining sistematik o’rni va turlar tarkibining solishtirma tahlili haqida ma’lumotlar berilgan.

Burchoqdoshlar 2urug’pallali o’simliklarning bir oilasi. Yer yuzining barcha mintaqalarida tarqalgan. Ularning barglari ketma ket joylashgan, gullari boshqosimon yoki shingilsimon to’pgulda o’rnashgan. Mevasi dukkak Burchoqdoshlarning yer yuzida 12000 turi 500 turkumi mavjud bo’lib, O’zbekistonda 57 turkum, 528 turi o’sadi. Hozirda o’sadigan 528 turdan 54 tasi O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan. Oila vakillari oqsilga boy bo’lib oziq-ovqat, yem-xashak uchun ishlatilib ushbu oila sistematikasi quyidagicha:

- Bo’lim: Magnoliyatoifa (Magnoliophyta)
- Sinf: Magnoliasimonlar (Magnoliopsida)
- Sinfcha: Ra’nokabilar (Rosoidae)
- Qabila: Burchoqnamolar (Fagales)
- Oila: Burchoqdoshlar (Fabaceae)

1-jadval

Burchoqdoshlar oilasining O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 2006-yil nashridagi taxlili

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli					O’sish holati	
	0	1	2	3	Bir va ikki yillik o’ t	Ko’ p yilliko’ t	Daraxt	Buta	Yarim buta	Tabiiy	Madaniylashtirilgan
60	1	12	45	2	2	45	1	3	9	54	6

“Qizil Kitob”ning 2006 yilgi nashriga jami 325 ta tur o’simlik turi kiritilgan bo’lib, shundan 60 ta tur ya’ni 18. 5 foizo’ simliklar Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasi hissasiga to’g’ri keladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, o’simliklarning yo’qolgan yoki yo’qolish arafasidagi turlari (kamyoblik darajasi - 0) juda ham oz soni 1 ta, yo’qolib borayotgan turlari (k.d. - 1) soni 12 ta, kamyob turlari (k. d. - 2) soni 45ta, kamayib borayotgan turlar (k.d. - 3) 2 ta.

Burchoqdoshlar oilasiga kiritilgan o’simliklarning hayotiy shakllari Serebryakov tasnifi bo’yicha tahlil qilinganda, ularning barchasi yer usti o’tsimon o’simliklari bo’limiga mansub bo’lib, ularning 45 tasi ko’p yillik, 2 tasi bir va ikki yillik, 1tasi daraxt, 3tasi buta, 9tasi yarim buta o’simliklar ekanligi aniqlandi.

Mazkur o’simliklarning 54 tasi tabiiy holda o’sib, ularning madaniylashtirilganligi haqida aniq ma’lumotlar keltirilmagan. Faqat 6 ta tur o’simlik O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika bog’ida o’stirilayotganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Burchoqdoshlar oilasi vakillari asosan tog’lar va tog’ yonbag’irlarida uchrashi ma’lum bo’ldi.

“Qizil Kitob”ning 2019 yilgi nashriga jami 314 ta o’simlik turi kiritilgan bo’lib, shundan 54 ta tur, ya’ni jami o’simliklarning 17. 2 foizi Burchoqdoshlar (Fabaceae)oilasi hissasiga to’g’ri keladi.

Ushbu turlarning yo’qolgan yoki yo’qolish arafasidagi turlari (kamyoblik darajasi - 0) 3 ta, yo’qolib borayotgan turlari (k. d. - 1) soni 20 ta, kamyob turlari (k. d. - 2) soni 25 ta, kamayib borayotgan turlar (k. d. - 3) 6 ta demak Burchoqdoshlar oilasida kamyob turlar ko’pligini ko’rishimiz mumkin(2-jadval).

2-jadval

Burchoqdoshlar oilasining O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 2019-yil nashridagi tahlili

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli					O’sish holati	
	0	1	2	3	Bir va ikki yillik o’ t	Ko’ p yilliko’ t	Daraxt	Buta	Yarim buta	Tabiiy	Madaniylashtirilgan
54	3	20	25	6	2	39	0	5	8	48	6

Burchoqdoshlar oilasiga kiritilgan o’simliklarning hayotiy shakllari Serebryakov tasnifi bo’yicha tahlil qilinganda, ularning barchasi yer usti o’tsimon o’simliklari bo’limiga mansub bo’lib, ularning 39 tasi ko’p yillik, 2 tasi bir va ikki yillik, buta 5 ta, yarim buta 8 ta va daraxtlar asosan kam ekanligi aniqlandi. Mazkur o’simliklarning 48 tasi tabiiy holda o’sib, ularning madaniylashtirilganligi haqida ma’lumotlar keltirilmagan. Faqat 6 ta turo’simlik O’zbekiston Respublikasi Fanlar

Akademiyasi Botanika bog'ida o'stirilayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud (2-jadval). Shuningdek oila vakillari asosan tog'da uchrashi ma'lum bo'ldi.

“Qizil kitob”ning 2006-2019-yildagi nashrlaridagi Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasi vakillarini o'rganishimiz davomida 2006-yildagi nashriga kiritilgan 60 ta o'simlik turlaridan 6 ta turi 2019- yilgi nashriga kiritilmagan.

Bunga sabab, muhofaza choralari o'z natijasini berganligini ko'rishimiz mumkin.

Turlarning kamayib borishiga sabab o'simliklarning piyoz va tuganaklari bilan yulib olinishi, chorva hayvonlari ko'p boqilishi va yerlarning o'zlashtirilishi ekanligidir. Keyingi izlanishlarimiz ushbu oila vakillarining dorivorlik xususiyatlari, xalq xo'jaligida ishlatilish sohalarini ochib berishdan iborat bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2006. 29-88 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. 15-70 bet.
3. “O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi”. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. 29-31 bet